



Modern directions of the organization of musical and independent work of students based on a creative approach

Ulugbek MIRSHAEV¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024
Received in revised form
10 April 2024
Accepted 25 April 2024
Available online
25 July 2024

Keywords:

independent work,
teaching methods,
intellect,
high culture,
modern pedagogical,
pedagogical technology.

ABSTRACT

This article highlights the areas of organization of musical-independent work of students, as well as the development of professional knowledge, skills and abilities, and intellectual learning abilities that determine their musical-professional competence.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp196-201>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kreativ yondashuv asosida talabalarning musiqiy-mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy yo‘nalishlari

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

mustaqil ish,
o‘qitish metodlari,
intellekt,
yuksak madaniyat,
zamonaviy pedagog,
pedagogik texnologiya.

Ushbu maqolada talabalarning musiqiy-mustaqil ishlarini tashkil etish, shuningdek ularning musiqiy-kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko‘nikma va malakalari, intellektual o‘rganuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari yoritib berilgan.

¹ Senior Lecturer, Department of Musical Performance and Culture, Bukhara State University.

Современные направления организации музыкально-самостоятельной работы учащихся на основе творческого подхода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

самостоятельная работа, методы обучения, интеллект, высокая культура, современный педагог, педагогические технологии.

В данной статье освещаются направления организации музыкально-самостоятельной работы учащихся, а также развития профессиональных знаний, умений и навыков, интеллектуальных способностей к обучению, определяющих их музыкально-профессиональную компетентность.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni yetishtirib berish zarurligini talab etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qo'llanilayotgan ta'lim dasturlarining mamlakatimiz ta'lim talablariga moslashtirib joriy etish orqali istiqbol cho'qqilariga olib chiqish masalasi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari hukumat tomonidan belgilanib, yuksak talablar asosida muhokama etilishi uning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni"ning 15-moddasida ta'lim olish shakllaridan kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'lim, dual ta'lim hamda mustaqil ta'lim shaklini ham joriy etish maqsadga muvofiq, deb topilgan.

Shuningdek, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga asosan 2020/2021-o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asosida ta'limning kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etila boshlandi. Kredit-modul tizimi joriy etilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejasi va fan dasturlari takomillashtirildi. Talabning muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirish zarurligi yuzaga keldi. Shunga ko'ra, o'quv yuklamaning bakalavriatda 50–60% mustaqil ish soatiga bo'lib berilganligi ta'lim berishga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab etdi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, musiqa sohasida talabalarga barcha ta'lim shakllari bo'yicha muayyan DTS, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida bilim berib boriladi. Musiqa sohasining qaysi ta'lim yo'nalishi bo'lishidan qat'iy nazar, yo'nalishlarning o'quv rejalarida auditoriya soatlaridan tashqari talabalarining mustaqil ta'lim olishi uchun

ajratilgan soatlar ham o'rin egallaydi. Namunaviy fan dasturlarida esa mustaqil ta'lim mavzulari o'z aksini topgan bo'ladi. Har bir professor-o'qituvchi o'quv reja hamda fan dasturi asosida mustaqil ta'lim soatlari va mavzularini fanning ishchi o'quv dasturiga kiritadi hamda shu asosida o'qituvchi o'zining o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqadi.

Talabani mustaqil fikrlaydigan va barkamol ijodkor sifatida tarbiyalash an'anasi 19-asrda rus pianino pedagogikasida shakllangan. Taniqli rus o'qituvchi-pianinotchilari L.V. Nikolaev, M.V. Yudina, V.V. Sofronitskiy, D.D. Shostakovich, P.A. Serebryakov o'z maqsadini talabaga umrbod bilim bilan "ta'minlashda" emas, balki o'zi harakatlanishi kerak bo'lgan "insonni relslarga qo'yishda" ko'rdi. K.N. Igumnov xuddi shunday pedagogik tamoyillarga amal qilgan va o'z shogirdlariga doimo u bilan muloqotda "o'z izlanishlari uchun boshlang'ich nuqtalarni" topishga o'rgatgan. Ya.I. Milshteyn talabalarni mustaqil izlanishlarga, "o'tilmagan yo'llar"ga yo'naltirgan, har bir talaba o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonishga yordam berishga, ular bilan ishlash muammosini hal qilishning to'g'ri variantini mustaqil ravishda topishga ishonch hosil qilishga harakat qildi [7].

Musiqqa ta'limi amaliyotida professor-o'qituvchilar tomonidan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari o'tilmoqda ammo, ko'pgina hollarda mustaqil ta'lim bo'yicha talabalarga topshiriq berilmay kelinmoqda. Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talab faqat fanning ishchi dasturi doirasida-gina bo'lib, namunaviy dasturda berilgan o'quv materiallari bajarilmasdan qolmoqda. Bajarilgan holatda ham faqat bitta referat yoki taqdimot tayyorlab berish, cholg'u asbobida musiqa asarini ijro etib berish, qo'shiq kuylab berish bilan cheklanilmoqda. Bu esa tayyorlanayotgan kadrlarning musiqiy bilim saviyasining sifat jihatdan pasayishiga olib kelmoqda. Natijada talabalarining o'quv materiallari bo'yicha fikrlash doirasi tor holatda shakllanish bilan cheklanib qolmoqda. Ularda musiqa san'ati sohasidagi izlanuvchanlik va ijodkorlikning so'nib ketishi, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasining shakllanmaganligi, axborot-resurs markazida o'quv adabiyotlari va internet manbalaridan foydalanish darajasining pastligi musiqa soasi mutaxassislarini xavotirga solib kelmoqda.

Zamonaviy o'quv jarayonida bo'lajak mutaxassislar – oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil ishini tashkil etishdan muhimroq va ayni paytda murakkabroq muammo yo'q. Talabalarining mustaqil ishi auditoriya bilan bir qatorda o'quv jarayonining shakllaridan birini ifodalaydi va uning muhim qismidir. N.N. Kraft mustaqil ishni "talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarish vositasi" deb hisoblaydi va bu faoliyatni bilvosita boshqarishni uning asosiy xususiyati sifatida belgilaydi [4].

Binobarin, mustaqil ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, ushbu faoliyat turi bo'yicha ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish uchun talabalarining o'quv dasturlarida mustaqil ish hajmini rejalashtirish zarur. Bunda talabalarining mustaqillik darajasiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, o'qish davrida kerakli darajaga erishilishi kerak. O'qituvchi talabaning musiqaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirib, chuqurlashtirib, uni mustaqil mashq qilishga o'rgatishi, cholg'u ustida ishlash jarayonining o'ziga mehr uyg'otishi kerak. Ammo mashg'ulotni bajarish jarayonida musiqa talabasining auditoriya va mustaqil ishlariga ajratilgan vaqt nisbati 1:1 ni tashkil qiladi. Tabiiyki, bu nisbatni muvaffaqiyatli deb atash mumkin emas, chunki musiqiy ijro faoliyati muntazam va tizimli "mashq" ni talab qiladi. Bu erda ishdagi "tanaffus", undagi har qanday uzoq tanaffuslar juda istalmagan: bu, qoida tariqasida, orqaga qaytish, kasbiy diskvalifikatsiya va zarur

ko'nikma va qobiliyatlarni yo'qotishga olib keladi. Musiqachi, badiiy va ijodiy kasblarning boshqa vakillari singari, deyarli har doim "shaklda" bo'lishi va ma'lum bir bosim ostida bo'lishi kerak. Binobarin, ushbu faoliyat turi katta didaktik salohiyatga ega bo'lib, bu mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning asosiy zaxirasiga aylanadi [5].

MUHOKAMA

Musiqani o'qitishda "mustaqillik" tushunchasi, xususan, musiqa ijrochiligi o'zining tuzilishi va mohiyatiga ko'ra turlichadir. U juda ko'p ko'p qirrali bo'lib, u turli darajalarda namoyon bo'ladi, masalan, musiqa asbobini chalayotganda, talabani notanish musiqiy materialni tashqi yordamisiz boshqarish, muallif matnini to'g'ri tushunish va ishonchli talqin qiluvchi "gipoteza (faraz)" yaratish qobiliyatini sintez qiladi. Pedagogik jihatdan musiqachi-talaba mustaqilligini tarbiyalash muammosi o'qitish metodlariga, o'qitish usullariga, ijro etish shakllariga ham ta'sir ko'rsatadi. Talabani mustaqil, izlanuvchan, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish har doim buyuk musiqachilarning tinimsiz g'amxo'rlik mavzusi bo'lib kelgan [6].

Binobarin, musiqada mustaqil ishlash asosiy muvaffaqiyat qozonishning zaruriy shartidir, chunki o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning sifati va ularning barqaror mustahkamlanishi ko'p jihatdan mustaqil izlanish jarayonining samaradorligiga bog'liq. Katta hajmdagi musiqiy asarlarni faqat o'qituvchi bilan darslar orqali qayta ishlash va mustahkamlash qiyin, uning davomiyligi haftasiga 1-2 soat bilan cheklangan. Sinfda o'tilgan materialni o'qituvchi bilan birlashtirish, yangi o'quv-pedagogik repertuarni o'zlashtirish, musiqa va uslubiy adabiyotlar bilan ishlashga qaratilgan faol mustaqil bilim, kompetensiya zarur.

Musiqiy asarni mustaqil ravishda o'zlashtirish murakkab faoliyat bo'lib, ko'nikmalarning butun majmuasini o'z ichiga oladi:

- ✓ muallif matnini batafsil, mazmunli tahlil qilish;
- ✓ badiiy obraz va musiqiy uslubga mos applikaturalarni tanlash;
- ✓ ijro rejasini va musiqiy asarning o'z talqinini yaratish;
- ✓ badiiylikka erishishning muvofiq usullari va vositalarini izlash;
- ✓ tahlil qilish va ijroda muayyan tuzatishlar va qo'shimchalarni kiritish va h.k.

Olim M.S. Muxitdinova[8]ning fikriga ko'ra "Hozirgi zamon musiqa ta'limi tizimi mutaxassisida avvalambor kelajakda pedagogik jarayon subyekti bo'lishiga imkon beradigan fazilat va xususiyatlarni loyihalash va shakllantirish lozimdir". Bunga uning musiqiy-kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko'nikma va malakalari; intellektual o'rganuvchanlik qobiliyati; aqliy mehnat qila olishi; ruhiy barqarorligi; kreativlik qobiliyatlari va hamkorlik, jamoaviy-tashkiliy, birgalikda, hamnafas faoliyat yuritish qobiliyatlari misola bo'ladi. Bu komponentlarning yaxlitligi va rivojlanganligi mutaxassisning professional mobillik darajasini belgilaydi. Bitiruvchining kelajakda kim bo'lishi, musiqa sohasi ijrochisimi yoki pedagogmi, tayyorgarligi qay daraja va qaysi yoshdagi bolalar kategoriyasi bilan ishlaydi, bularning hammasi loyihalashtirish paytida juda muhim. Natijada, talabani hayotdagi maqsadi va keyingi faoliyat rejalarini aniqlash uning kasbiy tayyorgarligiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotda esa aksariyat talabalarda musiqa cholg'u asboblari ijro etish, vokal, xorda kuylash mahorati yetishmaydi. Bunga sabab hozirgi vaqtda ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijyorlik va boshqa ixtisoslik fanlarida ta'lim berish guruh yoki kichik guruh shaklida amalga oshirilib borilayotganligidir. Bu vaziyat talabalarda cholg'u asboblari ijro etish, dirijyorlik, xorda

kuylash, qo'shiq o'rgatish metodikasi mahoratining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Talabalarning musiqa fanlaridan berilgan vazifalarni bajarishi kerakligini inobatga oladigan bo'lsak, musiqiy ijro mahoratini oshirish uchun talaba o'z ustida ko'proq ishlashi, topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishi kerak. Lekin talabalarning hammasi ham musiqa fanlaridan, jumladan, cholg'u asbobida musiqa asarini ijro etish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, dirijyorlik xatti-harakatlarini o'zlashtirib olish bo'yicha mustaqil ta'lim olish yo'llarini bilmaydilar yoki vaqtlarini rejasiz sarflaydilar, natijada berilgan topshiriqlarni bajarmasdan darslarga keladilar. Bu muammo ustida ko'pgina professor-o'qituvchilar bosh qotirmoqda va o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqda.

XULOSA

Ta'kidlash o'rinliki, musiqiy fanlardan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha ayrim ilmiy izlanishlar amalga oshirilib, metodik qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatma va tavsiyanomalar ham nashr etilgan. Biroq, shunga qaramay, cholg'uda ijro etish, xorda kuylash, vokal-xor malakalari, dirijyorlik, umuman olganda musiqiy savodxonlik darajasi ko'pgina talabalarda past. Bu holatni hozirda o'qib turgan talabalar faoliyatida, shuningdek, o'qishni tugatib o'z kasbi bo'yicha ishlab turgan yosh o'qituvchilar faoliyatida ko'rish mumkin. Bunday kamchiliklarni namoyon bo'layotgiligini turli sabablari bor. Nazarimizda asosiy sababalardan biri – talabalar o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar jarayonida yuqori darajadagi bilimni to'liq olmayotganligidir. Buni amalga oshirishda mustaqil ta'lim jarayoni cholg'u asbobida mustaqil mashq qilish, musiqiy savodxonlikni rivojlantirishda bilimni to'ldiruvchi, malakani rivojlantiruvchi rolini o'tashi kerak.

Yana bir jihat bu – ijrochilikdagi muntazam mashq jarayonidir. Ma'lumki, musiqa ta'limi bu murakkab bir o'quv jarayoni bo'lib talababalar musiqa materialini, kuy yoki qo'shiqni mazmun-mohiyatini anglab uni tushunib olishi, o'rganib uni yodlab olishidan tashqari ushbu asarni yuqori mahorat va badiiy did bilan ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish uchun yillar davomida ustoz-shogird an'alarini davom ettirib, mutaxassis rahbarligida muntazam ravishda mashq qilishni talab etadi.

Demak, talabada kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko'nikma va malakalari rivojlantirish, musiqiy ijrochilikni puxta o'zlashtirishda uning mustaqil ta'lim asosida intellektual o'rganuvchanlik qobiliyati va ruhiy barqarorligini ta'minlash barobarida hamkorlik, jamoaviy-tashkiliy, hamjihatlik sifatlarini takomillashtirib borish amaliyotini ta'minlash ta'limning zamonaviy talablaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son
4. N.N. Kraft Mustaqil ish talabalarning o'zini o'zi rivojlantirish vositasi sifatida // Adigeya davlat universiteti axborotnomasi. Maykop, 2006. No 4. S. 11-16, 12-bet.
5. M.V. Bulanova. Oliy maktab pedagogikasi va psixologiyasi: ucheb. nafaqa / sub obsc. ed. Toporkova. Rostov n/d: Feniks, 2002. 544 p, 216-bet.
6. G.G. Neuhaus. Pianino chalish san'ati haqida. M.: Muzika, 1987. 240 s., 138-bet.
7. A.A. Trifonov Pianino pedagogikasi nazariyasi va amaliyoti. Kuybishev: KDU nashriyoti, 1979. 86 b., 56-bet.

8. M.S.Muxitdinova. Pedagogika oliy musiqa ta'limida bakalavrlarni tayyorlashda uchrab turadigan muammolar va ularning yechish yo'llari. ("Science and Education" Scientific Journal December 2020 / Volume 1 Special Issue 4.

9. Mirshayev U. et al. The important tendencies in the development of creative and creative potentials in youth //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 3-3. – С. 497-500.

10. Самиева Ш., Шодмонова М., Рахматова Г. ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИДА БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАР ИЖОДКОРЛИК ВА ЛОЙИҲАЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 154-162.